



**ZAMONAVIY AYOLLAR USTKI KIIYIMLARIDAN XUDOYORXON O'RDASI
XANDASAVIY VA GRIX NAQSHLARIDAN FOYDALANIB LIBOS
TO'PLAMINI YARATISH**

Boymatova Kamola Abduraxmon qizi

Namangan to'qimachilik sanoati instituti

“Dizayn” kafedrası t.f.f.d

E-mail: kamolaboymatova@gmail.com

Ibrohimova Durdona Muxsinjon qizi

Farg'ona Politehnika instituti Yengil Sanoat va

To'qimachilik fakulteti M30-24 TBTKI guruh magistranti

E-mail: urdonamominova9902@gmail.com

Rahmonova Sarvinozxon Abrorjon qizi

Farg'ona Politehnika instituti Yengil Sanoat va

To'qimachilik fakulteti M30-24 TBTKI guruh magistranti

E-mail: rahmonovasarvinozxon5@gmail.com

Annotastsiya: Ushbu maqolada ayollar zamonaviy paltosi shakllari, qo'llanilayotgan matolar tahlili, materiallarining fizik-mexanik va ekspluatatsion xususiyatlarini o'rganilib, shu tahlillar natijasida ayollar uchun milliy naqshdan foydalanib zamonaviy hamda murakkab shaklli liboslar yangi assortimenti ishlab chiqildi.

Kalit so'zi: uski kiyim, naqsh, grih, geometrik, o'rda, koshin.



Kalit so‘zi: uski kiyim, naqsh, grih, geometrik, o‘rda, koshin.

Abstract: In this article, the forms of women's modern coats, the analysis of the fabrics used, the physical-mechanical and operational characteristics of their materials were studied, and as a result of these analyzes, a new assortment of modern and complex-shaped dresses was developed for women using the national pattern.

Key word: upper garment, pattern, grih, geometric, horde, tile.

Аннотация: В данной статье изучены формы современных женских пальто, проведен анализ используемых тканей, физико-механические и эксплуатационные характеристики их материалов, и в результате этих анализов создан новый ассортимент современных и сложных по форме пальто. платья были разработаны для женщин с использованием национальных узоров.

Ключевые слова: уская одежда, узор, грих, геометрический, орда, черепица.

Tadqiqot ishimizda badiiy bezak turlari naqshlar haqida borar ekan saroyning o‘ng tomonida Farg‘ona ipaklari ranglarini eslatuvchi naqsh bilan bezatilgan, keramika bilan o‘raglan yuzli minorani ko‘rishingiz mumkin. Saroy qurilishida xonlikning va unga qo‘shni mulklarning eng yaxshi ustalari jalb qilingan qurilishni Qo‘qonning eng istedodli me‘mori Mir Ubaydullo boshqargan. Rishtonning eng yaxshi hunarmandlari saroyda pardozlash ishlari bilan shug‘illangan ma‘lumki Rishton qadimgi keramika markazi hisoblanilgan. Me‘moriy obidaning qurilishida xom va pishtgan g‘isht, marmar, quyma ganch parket, tish, yog‘och, tunuka, har hil qimmatbaho toshlar va boshqa ashyolar ishlatilgan. Saroyning bosh tarzi bir qavatli, pishshiq g‘ishtdan ganch suvoqda terilgan devorlarga bir g‘ish chuqurlikda ravoqlar ishlangan. Xudoyorxon o‘rdasi bosh tarzi tavoqlari, peshtoq va guldastalaidagi handasiy naqshlar koshinlar sirkori parchinlardan mahorat bilan yaratilgan. O‘rdaning bosh tarsi, xonalar, koshinlar, o‘yma ganchkori naqshlar bilan bezatilgan. Bularni yaratgan ustalar bilim va yuksak mahoratlari bilan



shunday o'lmaz asarlarni yaratdi, va toshlarga muhirladilar va bu tushirilgan naqshlar hozirda ham binoda o'z jilvasini yo'qotmagan.



1-rasm Qo'qon Hudoyorxon O'rdasi.

Naqshni chizishda asosan ikki manbadan tabiiy va geometrik shakllardan foydalaniladi. Xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan jami naqshlar tabiat hamda voqelikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning o'zidan olingan. Usta chizadigan naqsh shunchaki yuzani to'ldirishi uchun emas balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizishdan iboratdir.

Naqsh tarihi nihoyatda qadimiydir. Hali yozuv vujudga kelmasdan chizmatasvir yozuv vazifasini bajargan. Bunda rassomlik va naqqoshlik ajiralib chiqqan. Naqsh dunyoning hamma xalqlarida qadimdan mavjud bo'lgan. Jumladan Xudoyorhon muzeyining devorlarida, shiftlarida, gumbazlarida geometrik (handasaviy) shakllar va o'simliksimon (islamiy) naqshlar bilan bezatilgan.



2-rasm.Handasaviy va islmiy naqshlar

Islimiy naqsh – tabiatda uchraydigan gullar, barglar, g‘uncha, novda va tanoblardan foydalanib, tuzilgan o‘simliksimon ramziy naqsh kompozitsiyasiga aytiladi. Islimiy naqshlar ona tabiat, tabiatning go‘zalligi noz ne‘matar diyori ekanligi, to‘lqinsimon islimiy naqsh hayotning notekisligini, oyning o‘n beshi yorug‘ bo‘lsa o‘n beshi qorong‘udir bularda hikmat alomatlari bordir. Insonning kuni va tuni vaqti o‘tishini ya‘ni umr o‘tishini ramziy anglatadi. Shuning uchun inson har bir daqiqani g‘animat bilishiga undaydi

Grih (fors. – muammo, tugun, chigal) – murakkab handasiy naqsh, me‘morchilik va badiiy hunarmandchilikda keng ishlatiladi. Naqsh asosi uchburchak, to‘rtburchak murabba, aylana va yoy shakllaridan tashkil topadi. Handasiy jihatdan grihni tahlil etish, chizib chiqish, yangi turarini ijod etish maxsus tayyorgarlik va mahoratni talab qiladi. Grihlar yaratilish davrida soda bo‘lib, keyinchalik takomillashib, murakkablashib borgan. Grih qanchalik murakkablashib mujassamotga ega bo‘lmasin uning qulay tomoni ham bor. Har qanday grih takrorlanuvchi ma‘lum bo‘laklarga ajratiladi. Taqsimlar takrorlangan sari, go‘zal va jozibali bo‘lib boradi. Shu tufayli ba‘zi soda grihlardan tashkil topgan murakkab grihni qayta parchalab, bir necha soda va mustaqil grih yasash, ikkinchi grihni bir-biriga chatishtirib, uchinchi hil grih yaratish mumkin. Shakllarga qarab grihlar turlicha nomlanadi. Taqsim asosida 5 va 10 qirrali yulduz bo‘lsa, 5 va 10 qirrali grih pargar yordamida chizilgan egri. Aynan shunday shakldagi grih naqshni Xudoyorhon muzeyida ko‘rish mumkin.



3-rasm Grih handasaviy naqsh

Ustki kiyimning eng muhim xususiyati – issiq saqlovchanlik. Bundan tashqari, matolarga shakl saqlovchanlik, yemirilishga chidamlilik, qayishqoqlik, kirishishga va cho‘zililishga qarshilik kabi talablar qo‘yiladi.

Paltolik gazlamalar guruxi katta bo‘lib, ushbu guruxga nafaqat qalin va og‘ir gazlamalar, balki yupqaroq, yozgi kiyimlarga munosib keladigan matolar, trikotaj matolar kiradi. Paltolik matolar avvalo xomashyo tarkibiga ko‘ra guruxlanadi. Bu gazlamalar ichida eng ko‘p tarqalgani jun va ip gazlamalardir.

Jun paltolik gazlamalar to‘qilishi, tola tarkibi va boshqa xususiyatiga ko‘ra bir nechta guruhlariga bo‘linadi. Kamvol, yupqa movut gazlama, drap, qalin movut gazlama va tukli matolar guruxlari kiradi. Ularning umumiy xususiyatlariga zichlik, issiqlik saqlovchanlik bo‘lib, tarkibiga jundan tashqari, sun‘iy tolalar ham kiradi.

Kiyimlar inson tanasi bilan bevosita aloqada bo‘lib, uning sifati buyum loyihalashda hisobga olinadi, ishlab chiqarish jarayonlarida ta‘minlanadi va eksplutatsiya davrida namoyon bo‘ladi. Shu sababli kiyimning tolaviy tarkibi hamda qo‘llanilgan homashyo turi, gazlamaning fizik hususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishki mavsumdagi kiyimlar uchun qo‘llaniluvchi gazlamalarning issiq saqlash hususiyati yuqori bo‘lishi zarurdir. Murakkab shaklli ayollar paltosi ishlab chiqarish maqsadida tadqiqot ishi belgilandi va ob‘ekt sifatida Namangan viloyati savdo markazlarida xaridorlar uchun taqdim etilgan paltolik gazlamalar tanlandi. Tadqiqot davomida tanlangan gazlamalarni hususiyatlari o‘rganildi.



Paltolik gazlamalarning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari

Namuna	Nomi	Yuza zichligi, g/m ²	Qalinlik, sm	Uzish kuchi		Uzishda gi uzayishi		Ishqalanishga chidamliligi	Havo o‘tkazuvchanligi	G‘ijimlanuvchanlik, %		Kirishuvchanlik, (%)	
				Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq			Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq
	Drap	59,3		20	85	5	0	0,0	5,4	4,3	8,1	,4	
	Noto'qi ma mato	76,5	,4	27	69	10	33	0,0	7,5	9,3	0,1	,3	,9
	Suniy mo'yna	59,9	,1	99	21	1	6	0,0	,95	9,3	0,5	,0	,8
	Trikotaj	93,6	,6	07	99	5	00	9,5	2,13	9,3	0,1	,5	,5
	Zamsha	22,2	,1	01	21	8	4	6,5	4,3	2,2	1,3	,3	,2

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotda ayollar ustki kiyimi uchun zamonaviy matolar assortimenti xarakateristikasi, gazlamaning eng muxim xususiyati – issiq saqllovchanlik. Bundan tashqari, matolarga shaklsaqllovchanlik, yemirilishga chidamlilik, qayishqoqlik,



kirishishga va cho‘zililishga qarshilik kabi talablar o‘rganildi. Tadqiqot ishimda asosan milliy naqishlarimizni zamonaviy ayollar ustki kiyimlarida qo‘llash natijasida yangi turdagi liboslar to‘plami ishlab chiqdim.



4-rasm.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сайрус Г, Мифология древного мира. М. Наука, 1977.- С.127
2. G.K.Xasanbayeva M.Sh. Shomansurova “Mahsus kompozitsiya” Toshkent 2007-yil
3. Sohirova Z. “Marketing va menejment”
4. Yunusxo'jayeva X.M. “Tikuv buyumlari texnologiyasi” kurs leksiya
5. Черемных А. И. “Основы художественного проектирования одежды” .М 1986 г



6. O'zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar to'plab nashrga tayyorlovchi matnlar muallifi N.Sodiqova.-T.muallifi N.муаллифи Н.Содикова. -Т. Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. 5

7. Узбекистон Миллий Энциклопедияси. -Тошкент, 2000. - Т. 1. - Б. 138.